

Oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va klinik ordinatorlarni o'qitish vakolati berilgan xususiy klinikalar klinik ordinaturasiga kirish test sinovlarida **PEDIATRIYA** fanidan foydalaniladigan test varianti tafsiloti

1. Test variantining qo'llanish maqsadi:

Pediatric fanidan test topshiriqlari O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarning kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlariga kirish test sinovlarida oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari hamda Pediatric faniga oid o'quv dasturlarida o'zlashtirilishi belgilangan bilim, ko'nikma, malaka talablari asosida talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlab berish uchun mo'ljallangan.

2. Test variantini shakllantirishda asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlar:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 2009-yil 18-dekabrda VMQ-319-son qarori bilan tasdiqlangan "Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi to'g'risida Nizom";
- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining "2024/2025 o'quv yilida klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul qilish to'g'risida"gi 2024-yil 17-iyuldagi 238-son buyrug'i;
- Pediatric faniga oid amaldagi davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari.

3. Pediatric fanidan shakllantiriladigan test variantining tarkibi:

Pediatric fanidan mutaxassislik fani sifatida shakllantiriladigan test varianti talabalarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi bilan birga mantiqiy fikrlashi, masala va topshiriqlarni bajara olish qobiliyati va ta'limning keyingi bosqichiga tayyorgarligini baholaydigan, fanga oid kompetensiyalarni tekshirishga yo'naltirilgan test topshiriqlaridan tarkib topadi. Test topshiriqlarining soni hamda baholash mezonlari Sog'liqni saqlash vazirligi va oliy ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

4. Test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan fan mazmunining tarkibi

Kodi	Tekshiriladigan fan mazmunining tarkibi
1.1	<p>Pediatriya fan sifatida Pediatriyaga kirish, fanning ilmiy-tadqiqot metodlari. Pediatriya fanining rivojlanish tarixi. Olimlarning Pediatriya fani rivojiga qo‘shgan hissalar.</p>
1.2	<p>Bolalarning jismoniy rivojlanishi. Bolalarning jismoniy rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari. Jaxon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan besh yoshgacha bolalarni o‘shish va rivojlanish standartlari va grafiklari. “Biologik akseleratsiya” haqida tushuncha. Bolalar jismoniy rivojlanishini buzilish semiotikasi (oqsil-energetik yetishmovchiligi darajalari, ortiqcha vazn, semizlik).</p>
1.3	<p>Bolalarni asab-ruhiy rivojlanishi, semiotikasi va patologiyasi. Markaziy asab tizimining anatomik-fiziologik hususiyatlari. Asab ruhiy tizimini baholash mezonlari. Bolani aqliy va ruhiy rivojlanishi buzilishida uchraydigan kasalliklar semiotikasi (meningial va entsefalitik sindromlar, oligofreniya).</p>
1.4	<p>Bolalarda teri va teri osti yog‘ qatlami va asosiy jarohatlanishlari semiotikasi va patologiyasi. Bolalarda teri, teri osti yog‘ qavatini morfologik va funksional hususiyatlari. Teridagi bezlar, soch va tirnoqlarning rivojlanishi, ularning funksional faoliyatini hususiyatlari. Bolalarda teri, teri osti yog‘ qavatini jarohatlanish semiotikasi va sindromlari. Eksudativ kataral diatez.</p>
1.5	<p>Bolalarda suyak-mushak tizimi va ularni jarohatlanish semiotikasi va patologiyasi Bolalarda suyak-mushak tizimini morfologik va funksional hususiyatlari, rivojlanishi. Bolalarda fosfor-kalsiy almashinuvining hususiyatlari. Suyak--mushak tizimining asosiy kasalliklari semiotikasi. Raxit.</p>
1.6	<p>Bolalar nafas olish tizimining anatomik-fiziologik hususiyatlari, semiotikasi va patologiyasi. Bolalar nafas olish tizimini yoshiga ko‘ra anatomik-fiziologik hususiyatlari. Tashqi nafas faoliyatlarini baholash usullari va mezonlari. Yuqori va pastki nafas yo‘llari kasalliklari. Traxeit. Laringit. Faringit. O‘tkir va surunkali bronxitlar. Obstruktiv bronxit. Qaytalanuvchi bronxit Pastki nafas yo‘llari kasalliklari. Bronxiolitlar. Zotiljamlar. Zotiljamlarning o‘pka ichi va tashqari asoratlari. Plevrit. Pnevmotoraks. Piopnevotoraks. Gidrotoraks</p>
1.7	<p>Bolalar yurak-qon tomir tizimining anatomik-fiziologik hususiyatlari, semiotikasi va patologiyasi. Bolalarda ko‘p uchraydigan tug‘ma yurak nuqsonlari semiotikasi. Yurak qon-tomir tizimi kasalliklari semiotikasi (miokardit, yurak yetishmovchiligi sindromi darajalari, kliniko-instrumental belgilari). Yurak ritmi buzilishlari. O‘tkir revmatik isitma. Bolalarda norevmatik kardit. Sistemali biriktiruvchi to‘qima kasalliklari.</p>
1.8	<p>Bolalar hazm qilish tizimi, jarohatlanish semiotikasi va patologiyasi. Bolalarda hazm tizimi anatomik-fiziologik hususiyatlari. Bolalarda uchraydigan hazm tizimi kasalliklari sindromi (o‘tkir qorin, sariqlik, malabsorbtsiya, gastroenterokolit, jigar yetishmovchiligi). Oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichak yara kasalligi. Mal’absorbtsiya sindromi bilan kechadigan kasalliklar. (Seliakiya, laktaza yetishmovchiligi, mukovistsidoz).</p>

1.9	<p>Bolalar siydik hosil qilish va siydik ajratish a'zolarining va jarohatlanish semiotikasi va patologiyasi. Ayiruv organlari anatomik-fiziologik hususiyatlari. Kasalliklar semiotikasi va sindromlari (siydik qoldig'i sindromi, buyrak yetishmovchiligi sindromi). O'tkir va surunkali glomerulonefrit. Piyelonefritlar. Sistit, uretrit. Dismetabolik nefropatiyalar.</p>
1.10	<p>Bolalarda qon va qon yaratuvchi a'zolari, ularni jarohatlanish semiotikasi va patologiyasi. Bolalarda qon va qon hosil bo'lish a'zolari anatomik-fiziologik hususiyatlari. Qon va qon hosil bo'lish a'zolari kasalliklari sindromi (anemiya, leykoz, periferik limfa tugunlari kattalashishi) va semiotikasi (periferik qonni asosiy ko'rsatkichlarini kamayishi, ko'payishi). Temir tanqislik anemiyasi.</p>
1.11	<p>Bolalarda endokrin tizimi va uning jarohatlanish semiotikasi. Bolalarda endokrin tizimini anatomik-fiziologik hususiyatlariga ko'ra tekshirish usullari. Bolalarda endokrin tizimini asosiy kasalliklari semiotikasi va sindromlari.</p>
1.12	<p>Bolalarni ko'krak suti bilan ovqatlantirish. Ko'krak suti bilan ovqatlantirish va uning bolani to'g'ri rivojlanishidagi ahamiyati. Qo'shimcha ovqat kiritish tamoyillari. Qo'shimcha ovqat kiritish qoidalari va qo'shimcha ovqat turlari.</p>
1.13	<p>Homila ichi infektsiyalari. Bakterial, virusli va parazitlar homila ichi infektsiyalari. Toksoplazmoz, listerioz, zaxm, qizilcha, herpes, sitomegaliyani qo'zgatuvchilari mikrobiologiyasi. Etiopatogenez masalalari, kechishini klinik shakllari, davolash.</p>
1.14	<p>Umumiy amaliyot shifokorlik asoslari. Birlamchi yordam tamoyillari. Sog'liqni saqlash tizimida umumiy pediatri o'rni va vazifalari. Birlamchi tibbiy sanitariya tizimidagi muassasalarini asosiy statistik ko'rsatkichlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlari.</p>
1.15	<p>Vaktsinatsiya. Proflaktik emlash kalendari. Proflaktik emlashga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Vaktsinadan keyingi reaksiya va asoratlar. Vaktsinatsiya.</p>

5. Pediatriya faniga oid kognitiv ko'nikma darajasi

1	quyi kognitiv daraja	<ul style="list-style-type: none"> - dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan; - terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi; - o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi; - dasturning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi; - amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetentsiyalarni egallashi, ammo biroz kamchiliklar bilan; - amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi; - dastuda tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi; - o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, kontseptsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi.
---	----------------------	---

2	yuqori kognitiv daraja	<ul style="list-style-type: none"> - dasturining barcha bo‘limlari bo‘yicha tizimli, to‘la va chuqur bilimga ega bo‘lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi; - terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o‘z o‘rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to‘g‘ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi; - muammoli savollarni aniqlashi, o‘z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi; - tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo‘llay olishi; - nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko‘rsata olishi; - amaliy ko‘nikmalarni mustaqil ravishda to‘liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetentsiyalarni to‘liq egallashi; - amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi; - modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlarni to‘liq va chuqur o‘zlashtirishi; - dastur bo‘yicha nazariyalar, kontseptsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo‘llay olishi.
---	------------------------------	---

6. Pediatriya fanidan test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar

Pediatriya faniga oid test varianti abituriyentlarning nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasini, ularning mantiqiy fikrlashini baholaydigan test topshiriqlaridan iborat. Mazkur test topshiriqlarini shakllantirishda amaldagi davlat ta‘lim standartlari, pediatriya fani ta‘lim o‘quv dasturlarida o‘zlashtirilishi belgilab ko‘rsatilgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar asos sifatida qaraldi.

Fan		Tekshiriladigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar	Kodi
Pediatriya	Pediatriya fan sifatida	Pediatriyaga kirish, fanning ilmiy-tadqiqot metodlari haqida bilish Pediatriya fanining rivojlanish tarixi haqida bilish. Olimlarning Pediatriya fani rivojiga qo‘shgan hissalar haqida ma‘lumotga ega bo‘lish.	1.1.1
	Bolalarning jismoniy rivojlanishi.	Bolalar jismoniy rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlarini bilish. Bolaning xronologik yoshini aniqlay olish. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan 0-5 yoshgacha, 18 yoshgacha bolalarni o‘rnatish va rivojlanish standartlari va grafiklarini interpretatsiya qila olish. “Biologik akseleratsiya” haqida tushunchaga ega bo‘lish. Bolalar jismoniy rivojlanishini buzilish semiotikasi (oqsil-energetik yetishmovchiligi darajalari, ortiqcha vazn, semizlik) haqida bilimga ega bo‘lish va tashxislay olish, zarur tavsiyalar berish.	1.2.1

	Bolalarni asab-ruhiy rivojlanishi, semiotikasi va patologiyasi.	Markaziy asab tizimining anatomik-fiziologik hususiyatlarini bilish. Asab-ruhiy tizimini baholay olish. Fiziologik va patologik reflekslarni tekshira olish. Bolani aqliy va ruhiy rivojlanishi buzilishida uchraydigan kasalliklar semiotikasi (meningial va entsefalitik sindromlar, oligofreniya)ni bilish.	1.3.1
	Bolalarda teri va teri osti yog' qatlami va asosiy jarohatlanishlari semiotikasi va patologiyasi.	Bolalarda teri, teri osti yog' qavatining morfologik va funksional hususiyatlarini bilish. Teridagi bezlar, soch va tirnoqlarning rivojlanishi, ularning funksional faoliyatini hususiyatlari. Bolalarda teri, teri osti yog' qavatini jarohatlanish semiotikasi va sindromlarini bilish, qiyosiy tashxisotini o'tkazish. Ekssudativ kataral diatezni tashxislash va davolay olish.	1.4.1
	Bolalarda suyak-mushak tizimi va ularni jarohatlanish semiotikasi va patologiyasi	Bolalarda suyak-mushak tizimini morfologik va funksional hususiyatlari, rivojlanishiga baho bera olish. Bolalarda fosfor-kalsiy almashinuvining hususiyatlarini bilish. Suyak-mushak tizimining asosiy kasalliklari semiotikasini bilish. Raxitni tashxislash va davolay olish.	1.5.1
	Bolalar nafas olish tizimining anatomik-fiziologik hususiyatlari, semiotikasi va patologiyasi.	Bolalar nafas olish tizimini yoshiga ko'ra anatomik-fiziologik hususiyatlarini bilish. Tashqi nafas faoliyatlarini baholash usullarini qo'llay olish va mezonlarini interpretatsiya qilish. Yuqori va pastki nafas yo'llari kasalliklarini tashxislash (anamnez, obyektiv ko'ruvda palpatsiya, perkussiya, auskultatsiya usullarini qo'llash, laborator-instrumental tekshiruvlarini interpretatsiya qilish) va davolash.	1.6.1
	Bolalar yurak-qon tomir tizimining anatomik-fiziologik hususiyatlari, semiotikasi va patologiyasi.	Bolalarda ko'p uchraydigan tug'ma yurak nuqsonlari semiotikasini bilish. Yurak qon-tomir tizimi kasalliklari semiotikasi (miokardit, yurak yetishmovchiligi sindromi darajalari, klinik-instrumental belgilari)ni tashxislash (anamnez, obyektiv ko'ruvda palpatsiya, perkussiya, auskultatsiya usullarini qo'llash, laborator-instrumental tekshiruvlarini interpretatsiya qilish) va davolash.	1.7.1
	Bolalar hazm qilish tizimi, jarohatlanish semiotikasi va patologiyasi.	Bolalarda hazm tizimi anatomik-fiziologik hususiyatlarini bilish. Bolalarda uchraydigan hazm tizimi kasalliklari sindromi (o'tkir qorin,	1.8.1

		sariqlik, malabsorbtsiya, gastroenterokolit, jigar yetishmovchiligi), oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichak yara kasalligi, malabsorbtsiya sindromi bilan kechadigan kasalliklarni tashxislash (anamnez, obyektiv ko‘ruvda palpatsiya, perkussiya, auskultatsiya usullarini qo‘llash, laborator-instrumental tekshiruvlarini interpretatsiya qilish) va davolash.	
	Bolalar siydik hosil qilish va siydik ajratish a‘zolarining va jarohatlanish semiotikasi va patologiyasi.	Ayiruv organlari anatomik-fiziologik hususiyatlarini bilish. Kasalliklar semiotikasi va sindromlarini tashxislash (anamnez, obyektiv ko‘ruvda palpatsiya, perkussiya, auskultatsiya usullarini qo‘llash, laborator-instrumental tekshiruvlarini interpretatsiya qilish) va davolash.	1.9.1
	Bolalarda qon va qon yaratuvchi a‘zolari, ularni jarohatlanish semiotikasi va patologiyasi.	Bolalarda qon va qon hosil bo‘lish a‘zolari anatomik-fiziologik hususiyatlarini bilish. Qon va qon hosil bo‘lish a‘zolari kasalliklari sindromi va semiotikasi, temir tanqislik anemiyasida tashxislash (anamnez, obyektiv ko‘ruvda palpatsiya, perkussiya, auskultatsiya usullarini qo‘llash, laborator-instrumental tekshiruvlarini interpretatsiya qilish) va davolash.	1.10.1
	Bolalarda endokrin tizimi va uning jarohatlanish semiotikasi.	Bolalarda endokrin tizimini anatomik-fiziologik hususiyatlariga ko‘ra tekshirish usullarini bilish va interpretatsiya qila olish. Bolalarda endokrin tizimini asosiy kasalliklari semiotikasi va sindromlarini tashxislash (anamnez, obyektiv ko‘ruvda palpatsiya, perkussiya, auskultatsiya usullarini qo‘llash, laborator-instrumental tekshiruvlarini interpretatsiya qilish).	1.11.1
	Bolalarni ko‘krak suti bilan ovqatlantirish.	Ko‘krak suti bilan ovqatlantirish va uning bolani to‘g‘ri rivojlanishidagi ahamiyatini bilish. Qo‘shimcha ovqat kiritish tamoyillari, qo‘shimcha ovqat kiritish qoidalari, qo‘shimcha ovqat turlarini bilish va zarur tavsiyalar bera olish.	1.12.1
	Homila ichi infeksiyalari	Bakterial, virusli va parazitlar homila ichi infeksiyalari. Toksoplazmoz, listerioz, zaxm, qizilcha, herpes, sitomegaliyani qo‘zgatuvchilari mikrobiologiyasini bilish. Etiopatogenez masalalari, kechishining klinik shakllarini bilish.	1.13.1

	Umumiy amaliyot shifokorlik asoslari	Birlamchi yordam tamoyillarini bilish. Sog'liqni saqlash tizimida umumiy pediatriya o'rni va vazifalarini bilish. Birlamchi tibbiy sanitariya tizimidagi muassasalarini asosiy statistik ko'rsatkichlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlarini yuritishni bilish.	1.14.1
	Vaksinatsiya	Proflaktik emlash kalendari, proflaktik emlashga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni bilish. Vaksinadan keyingi reaksiya va asoratlar haqida bilish.	1.15.1

7. Foydalanishga tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Госпитал педиатрия. Рахимов С.А., Исроилов А.Р., Тошкент, 2010 й.
2. Детские болезни. Том 1. Шабалов Н.П. Москва, 2007 г.
3. Детские болезни. Том 2. Шабалов Н.П. Москва, 2007 г.
4. Детские болезни. Баранов А.А. Москва, 2009 г.
5. Детские болезни, Баранов А.М., 2008 г.
6. Болаларга стационар ёрдам курсатиш. Услубий кўлланма. (ССВнинг №225 буйруғи, 2013 й.).
7. Болалар касалликлари, Дарслик. Даминов Т.О., Халматова Б.Т., Бобоева У.Р. Тошкент, 2013 й.
8. Детские болезни, Учебник. Даминов Т.О., Халматова Б.Т., Бобоева У.Р. Ташкент. 2013 г.
9. Болалар касалликлари пропедевтикаси Ашурова Д.Т. таҳрири остида (рус, ўзбек, қорақолпоқ тилида) 2018 й.
10. Болалар касалликлари пропедевтикаси. Қораходжаев Б.И. 2006 й.
11. Факультет педиатриyasi. Муратходжаева А.В. ва бошқ. 2015 й.
12. Неонатология. Алимов А.В. ва бошқ. 2018 й.
13. Poliklinik pediatriya va reabilitologiya. Shomansurova E.A., Toskent, 2010 y.
14. Пропедевтика детских болезней. Мазурин А.В., 1999 г.
15. Решение проблем новорожденных. Руководство для эффективной практики. ВОЗ 2005 г..
16. УАШ учун амалий кўникмалар тўплами. Гадоев А.Г., 2012 й..
17. Общая врачебная практика. Руководство под ред. Назирова Ф.Г., Гадаева А.Г., М.: ГЭОТАР, 2005 г.
18. Болалар касалликларини интеграцион усулда олиб бориш. Ўқув кўлланма. ССВ/ЮНИСЕФ, 2011 й..
19. Неонатология. Шабалов Н.П., Санкт - Петербург, 2004 г..
20. Поликлиник педиатрия ва реабилитология Шомансурова Э.А., Тошкент, 2010 й..
21. Пропедевтика детских болезней. Капитан Т.В., М. 2006 г.
22. Пропедевтика детских болезней. Мазурин А.В., Воронцов И.М., 2-е издание Санкт- Петербург, 2009 г.

***Izoh:** Mazkur hujjatga aprobatsiya natijalari hamda vakolatli davlat tashkilotlarining tegishli qaror va buyruqlariga asosan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.